

Date: 5thNovember-2024

**TA'LIM VA TARBIYANING HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASIDAGI
AHAMIYATI**

Ziyodullayev Bunyod Bahrom o'g'li

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 316-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, ta'lismi va Tarbiyaning huquqbazarliklari profilaktikasidagi ahamiyati tushunchasi, tavsifi, ilmiy va nazariy asoslari, o'ziga xos hususiyatlari, ta'lismi va Tarbiyani amalga oshirishdagi bir qator muammo va kamchiliklar O`zbekiston Respublikasidagi ta'lismi va hukuqiy Tarbiya tizimi, tashkiliy va huquqiy asoslari va ularni rivojlantirishga oid bir qator taklif va tavsiyalar berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что понятие, описание, научно-теоретические основы, особенности значения образования и обучения в сфере профилактики преступности, ряд проблем и недостатков в реализации образования и обучения в республике. Узбекистана дан ряд предложений и рекомендаций относительно системы юридического образования, организационно-правовых основ и их развития.

Ilmiy maqolaning dolzarbliji: " Jahonda huquqiy tarbiyaning samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish orqali huquqbazarliklarning oldini olish, jamiyatda o'rnatilgan tartibot va huquq normalariga og'ishmay rioya qiladigan shaxsnii Tarbiyalash va unga ta'lismi berish masalalarining dolzarbliji bu borada chuqur masalalardan biriga aylanib kelmoqda. SHu jihatdan qaraganda, aholining ta'lismi va tarbiyasini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarga huquqiy ta'lismi-tarbiya berish orqali ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Davlat xizmatchilarining qonun hujjatlarini to'g'ri qo'llash amaliyotini jadallashtirish talab etiladi. Huquqbazarliklar profilaktikasida ta'lismi va tarbiyani tartibga solishning yo'naliш va istiqbollarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ta'lismi va tarbiya sohasida bir qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinib kelayotganligi yoshlarga ta'lismi va tarbiya berish va ularning jamiyatdagi ro'lini oshirishga va ularni huquq va erkinliklarini amalga oshirishga muayyan darajada hizmat qilib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasining qonunlari, kodekslari, Vazirlar maxkamasining qarorlari, Prezident qaror va farmonlarida ham ta'lismi va tarbiya berish, huquqbazarliklar profilaktikasida ta'lismi organlarining vazifalari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. O`zbekiston Respublikasining "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida ham huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar sifatida belgilab qo'yilganligi ularning vakolat doirasini belgilab qo'ygan.

Ta'lismi — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lismi jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lismi tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda

Date: 5thNovember-2024



ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darjasini bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiyligi ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyatini taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan. Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtaisdagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi va kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi. Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar Ta'limni jamiyatning ijtimoiyqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'limgan hodisa sifatida baholasalar (qarang Pedotsentrizm), ba'zisi Ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari karatilganligini ta'kidlaydi. Ta'limning maqsadi ob'yektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora-tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Huquqbazarlik sodir yetgan yoki xulqiy og'ishlari ijtimoiy havf ehtimolini yuzaga keltiradigan voyaga yetmaganlar umumta'lim maktablarining ichki nazoratiga olinishi belgilangan. Bunday o'quvchilar qatoriga ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablarsiz kelmayotgan va muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilar, ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlar, notinch oila farzandlari, tarbiyasi og'ir bolalar, ta'lim muassasalariga o'tkir tig'li ta'qilangan buyumlarni olib kelgan yoki olib kirishga uringan o'quvchilar va ijtimoiy havfli hatti-harakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar kiradi. Umumta'lim maktablarida yakka tartibda ishlashda huquqbazarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan yoki qayta sodir etish ehtimoli bo'lgan bola barcha profilaktik tadbirlarning markazida bo'ladi. O'quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas'ul xodim sifatida sinf rahbari, yoshlar yetakchisi, muktab inspektor psixolog, tajribali o'qituvchilardan bir nafari (zarur hollarda bir necha nafar) bo'lishi mumkin. O'quvchilar muktab ichki nazoratiga uch, olti, to'qqiz oy va bir yil muddatga olinadi va ushbu muddat o'quvchining xulqida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgunga qadar uzaytirilishi mumkin. Huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga roiya qiladigan fuqarolarni tarbiyalash muhim

Date: 5thNovember-2024



ahamiyat kasb yetadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim mакtablarida fan sifatida o'tiladigan —Huquqshunoslik darslari o'z o'rниga ega. O'quvchilarga huquqbuzarlik, huquqiy javobgarlik, jazo, jinoyat, huquqbuzarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi. SHuningdek, ta'lіm tizimida voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasi borasida ijtimoiy pedagogika sohasi maxsus yo'naliш sifatida rivojlanmoqda.

Har bir mamlakatda va jamiyatda voyaga yetmaganlar muhitida salbiy voqeliklarning jiddiy o'sishiga olib keluvchi qator omillar yuzaga kelishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Aholi asosiy qismi turmush darajasining pasayishi, ishsizlikning o'sishi, yangi sharoitlarga moslasha olmagan ko'pchilik insonlar holati va maqominining o'zgarishi. Bu ichkilikbozlikning, muammodan «qochish» yo'li sifatida giyohvandlikning, ba'zi hollarda majburiy (boyish ma'nosida g'arazga emas, balki odatiy turmush tarzini saqlashga intilishga asoslangan) jinoyatchilikning o'sishiga olib keladi.

2. Aholi ko'pchilik guruhlarining ijtimoiy himoyalanmaganligi va jamiyatdagi keskin tabaqalashuv huquqiy nigelizmni hamda davlat hokimiyati organlariga ishonchszlikni tug'diradi.

3.Ijtimoiy inqiroz voyaga yetmagan avlodning marginalligini, dunyoqarashning buzilishini, munosabatlarda chalkashlikni keltirib chiqaradigan anomiya vaziyatiga olib kelishi mumkin. Bunday yosh kishilarning ma'naviy dunyosidagi inqirozli vaziyat ularning asosiy qismiga yaratib beriladigan bo'sh vaqt ni yaxshi tashkil etilmaganligi, yoshlarga oid davlat siyosatining lozim darajada tartibga solinmaganligi bilan yana ham og'irlashadi.

4.Ijtimoiy anomiya jamiyat ma'naviy darajasini ham pasaytiradi. Hozirgi sharoitlarda axloqiy-ma'naviy asoslarning yo'qligi shunga olib kelishi mumkinki, moddiy ehtiyojlarni qondirish, ko'pincha yagona bo'lmasada, baribir bosh maqsadga aylanib boradi. SHu bois, voyaga yetmaganlar jinoyatlarining aksariyati o'zgalar multkini o'zlashtirish bilan bog'liq.

5.Ijtimoiy oliy maqsadlar inqirozi o'quv muassasalarining tarbiyaviy imkoniyatlariga salbiy ta'sir qiladi, bu imkoniyatlar yoshlarning manfaatlarini ifodalaydigan va ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlaydigan jamoat tashkilotlari faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmaganda yanada keskinlashadi. Natijada o'ziga xos bo'shliq vujudga kelib, u o'z-o'zidan shakllanuvchi va ommaviy madaniyatning sodda namunalaridan yoki jinoiy guruh madaniyatidan yo'naliш oluvchi «tengqurlar madaniyati» bilan to'ldirilishi mumkin.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Ta'lіm va tarbiyaning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyati juda yuqori ekanligini bugungi o'zgarishlardan bilib olishimiz mumkin. «Ta'lіm va tarbiya» – davlat tuzilmalari, ta'lіm muassasalari, fuqarolik jamiyatni institutlari hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan, jamiyatda va uning har bir a'zosida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun va huquqiy tartibotga hurmat bilan qarashni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga muntazam ta'sir o'tkazib borishga qaratilgan faoliyat. Bunda huquqiy ta'lіm va tarbiyaning o'rni juda

Date: 5thNovember-2024



yuqori hisoblanadi. Mamlakatimizda aholi o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olishda hozirgi zamon ta'lismi va tarbiyaning rolini, uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga molikdir. Hozirgi zamon ta'lismi va tarbiya tizimini takomillashtirishda respublikamiz ta'lismi tizimining, to'g'rirog'i oliy va o'rta maxsus ta'lismi muassasalarida fanlarni o'qitish bo'yicha o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqish, ularni davlat va jamiyat taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozimligi to'g'risidagi xulosaga keladi.

Huquqbazarliklar profilaktikasida ta'lismi va tarbiyaning rolini oshirish va takomillashtirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Muammo: YUrtimizning o'rta ta'lismi maktablarida huquqshunoslik darsligi soatlari judayam kam vaqt ni tashkil etmoqda, ya'ni, bir hafta davomida atiga 1 soatni tashkil qilmoqda. Yiliga bu ko'rsatkich 32 soatdan iborat bo'lib qolmoqda. Bu voyaga yetmagan yoshlarimizning huquqiy savodxonlik darajasi past bo'lib qolishida sababchi bo'lib qolmoqda.

Taklif: Umumta'lismi maktablarimizda huquqiy fanlarni o'tish dars soatlarini ko'paytirish lozim. Hafta davomida 1,5 soat, yil davomida esa 48 soatga ko'paytirsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Muammo: YUrtimizda o'rta ta'lismi amalga oshiruvchi maktablarimizda huquqshunoslik fanlari 8-o'quv sinfigan boshlab o'rgatilmoqda. Bu holat esa o'quvchilarimizning huquqiy bilimini egallashini kechiktirmoqda. O'z navbatida bu holat voyaga yetmaganlar o'rtasida bilib bilmay huquqbazarliklar sodir etilishiga qaysidir ma'noda sharoit yaratib bermoqda.

Taklif: Huquqshunoslik fanlarini umumta'lismi maktablarida nisbatan ertaroq, ya'ni, 5-6-o'quv sinflaridan boshlab o'tilishi maqsadga muvofiq. CHunki, umumta'lismi maktablariniing huquqshunoslik fanidan dars beruvchi o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra jami o'qituvchilarning 76% ushbu fanlarni 5-6-o'quv sinflaridan boshlab o'tilishini ma'qullagan bo'lsa, atigi 9% yuqori sinfdan boshlab o'tilishi tarafдорлари bo'lishgan.